



INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA DARSLIKlardan
FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Muminova Nasiba Solijon qizi

TAFU o'qituvchisi

Amirjanova Komola Zafar qizi

TAFU PP-kurs

Annotatsiya: Bu maqolada asosan chet tillarini o'rganish tizimi samaradorligini oshirish va ushbu tizimga ilg'or texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, qadriyat, yoshlar, texnologiya, interfaol metodlar, darsliklar.

Hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va ma'naviyat, qadimiy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat. Buning uchun talabaning istak va xohishlarini e'tiborga olib, ularni har tomonlama yetuk va barkamol inson qilib yetishtirishda jahonning ilg'or tajriba usullaridan foydalanish zarur. Jahon tili hisoblangan ingliz tilini mukammal o'rgatish, tili o'rganilayotgan mamlakatlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash davr talabidir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, chet tillarini o'rganish tizimi samaradorligini oshirish va ushbu tizimga ilg'or texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda chet tillarini o'rganish, ko'p tillilik ulkan ahamiyatga egadir. Bugun iqtidorli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir. Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi. Ona tili, ikkinchi til, va chet til. Hozirgi kun sharoitida chet til ta'limini yangi zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'rganish va orgatish, xususan, masofaviy ta'limning uzluksiz ta'lim tizimida qanchalik samarali yo'l ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarini o'qitishda o'quv materiallarini tizimlashtirishning ilmiy- nazariy va meyoriy asoslari bugungi Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasidagi ustuvor vazifa hisoblanadi. Respublikamizda OTM xorijiy tillarni o'qitish majburiy etib belgilanganligi ingliz tili fanini ham o'qitishda ham tub burilish bo'lishiga olib keldi. Bu esa o'z-o'zidan ta'limda darsliklarni rivojlantirish talabini yuzaga chiqaradi. Shu xususda o'quv jarayoni materiali-darsliklarining topshiriqlarini interfaol tizimlashtirilishi hamda ularni mukammallashtirilishi tadqiqotimizning ilmiy-meyoriy jihatini ochib beradi.

Darslik – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singidirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr etish davr taqlabidir. Darslikni bugungi kunda ta'lim tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab



har bir o`qituvchi darslikda ta`lim oluvchilar bajarilishi kerak bo`lgan o`quv jarayonining ma`lum bosqichlari ko`rsatilgan bo`lib, ta`lim oluvchilar uchun mavzularni o`qib, undagi topshiriqlarni ma`lum harakatlar ko`rinishida bajarishadi: tekshiradi, yechadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin. Demak, darslik bu – muayyan o`quv predmeti mazmunini o`quv dasturida ko`rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo`lib, uning karakterli xususiyati darslik mazmunining o`quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikdagi material bo`limlar bo`yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo`lgan bandlar asosida ochib beriladi. Darsliklarda pedagogik jarayonning maqsadga yo`naltirilganligi; ta`lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi; ta`lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarliklik; tizimlilik va ketma-ketlik; onglilik, faollik, tashabbuskorlik, ta`lim oluvchilarning ijodkorligi; ta`lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi; ta`lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri; ko`rgazmalilik; ongli talabchanlik bilan birgalikda ta`lim oluvchi shaxsini hurmat qilish; ta`lim va tarbiyaning qo`lay metod, shakl va vositalarini tanlab olish; onglilik hamda ta`lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari; taq`lim-tarbiyaga kompleks yondashuv.

Darslik va o`quv materiallariga qo`yiladigan pedagogik talablar quyidagilardan iborat:

1. Material bayonining qat`iy ilmiyligi va hozirgi zamon fan va texnika rivojiga mosligi.
2. Yuksak g`oyaviylik va talabalarni axloqiy tarbiyalash vazifalariga bo`ysunishi.
3. Darslik mazmunining hayot bilan bog`liqligi har bir nazariy masalalar yetarlicha asosli misollar, ko`rsatmalar bilan bo`lishi va ularning hayotiy ahamiyati ko`rsatilgan bo`lishi lozim.
4. Talabalarning yosh va bilish xususiyatlarini hisobga olib, materialni izchil va tizimli joylashtirilishi.
5. Talabalarning mustaqil ishlash malakasiga muvofiq ko`rsatma va ma`lumotlarning mavjudligi, darslik mazmuniga kuzatish va mashq uchun o`quv topshiriqlar, o`z-o`zini tekshirish uchun savollar, takrorlash uchun savollar bo`lishi.
6. Materialni o`zlashtirishni yengillashtirish uchun bayonning oddiy, badiiy va obrazli bo`lishi.
7. Materialni o`zlashtirishni yengillashtirish uchun chizma, diagramma, rasm va illustratsiyalarning mavjudligi.
8. Darsning tashkiliy ko`rinishi yaxshi bo`lishi.

Demak OTM ingliz tili ta`limi jarayonida foydalaniladigan har bir manba talabalarni har tomonlama yetuk, barkamol etib tarbiyalashga qaratilishiga shubha bo`lishi mumkin emas. OTMda xorijiy til ya`ni ingliz tilini o`qitish ham ma`lum belgilangan bosqichlarga bo`lib amalga oshiriladi: Ta`lim jarayonida darsliklarni ishlab chiqishda ularga nazariy va amaliy jihatdan DTS belgilanadi. Bularga: darslik talabani intellektual salohiyatiga mos hamda qulayligi, milliy ruhda ortiqcha bo`yoqlarsiz barcha ma`lumotlar aniq va to`g`ri misollar bilan keltirilganligi, o`rganuvchi o`zi mustaqil darsliklardagi ma`lumotlarni o`zlashtira olishi shu bilan birga til ko`nikmasi rivojlanishidagi barcha usullarga va meyorlarga (masalan: yozish, o`qish, gapirish, tinglab tushunish bosqichlarini o`z ichiga qamrab olishi) to`la javob bera olishi, darsliklar ko`rinish va dizayn jihatdan ham



talabalarni diqqatini tortishi ko'rgazmalilik talabiga, darslik didaktik va tarbiyaviy jihatdan mukammal bo'lishi qat'iy talab etiladi. O'quv rejasi - deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilini tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. Barcha OTMda so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda kurslar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Taqqoslash jadvali

| Taqqoslash uchun asos | O'quv rejasi | O'quv dasturi |
|-----------------------|--|---|
| Ma'nosi | O'quv rejasi - bu mavzu bo'yicha tushunchalarning barcha qismlarini o'z ichiga olgan hujjat. | O'quv dasturi - bu ta'lim tizimida yoki kursda o'qitiladigan umumiy tarkib. |
| Kelib chiqishi | O'quv dasturi - yunoncha atama. | O'quv dasturi lotincha atama. |
| Belgilangan | Mavzu | Kurs |
| Tabiat | Ta'riflovchi | Belgilangan |
| Qo'llash sohasi | Tor | Keng |
| Yo'lga chiqing | Imtihon kengashi | OTM |
| Muddat | Belgilangan muddatga, odatda yiliga. | Kurs davom etguncha. |
| Bir xillik | O'qituvchilar metodik farq qiladi. | Barcha o'qituvchilar uchun bir xil. |

Har bir guruhda ingliz tilini o'qitishda darsliklar aniq belgilangan maqsadlar asosida, qabul qilingan tartib va ustuvor yo'nalishlar asosida harakat qilinadi. Demak yaratilishi lozim bo'lgan darsliklarda til, millat va davlat muayyan jamiyat tamaddunining asosi, poydevori, ko'zgusi va ozuqa manbasi ekanligi inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega. Davlatning taraqqiyoti ortida farovon jamiyat turgani kabi, millatning ortida til va madaniyat mushtarakligi mujassamlashadi. Xalq millat sifatida shakllansa, qadriyat, madaniyat va ma'naviyat va, eng asosiysi, maqsad yo'lida birlasha olsa, davlat rivojlanadi, jamiyat taraqqiy etadi. Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda global o'zgarishlar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Dunyo tajribasida ham til o'qitish mashg'ulotlari turli zamonaviy metodlar asosida olib borishga o'tildi. Chet tili o'qitish metodikasini takomillashtirish eng muhimi, mashg'ulotlarda nutqiy kompetentsiya shakllantirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunga kelib tillarni o'qitishga doir turli yangicha yondashular o'quv jarayoniga tatbiq etilmoqda, tilning barcha sathlarini o'qitish bo'yicha interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanmoqda. Ingliz, fransuz, nemis va boshqa rivojlangan xorijiy tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda muloqot, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida turli mashqlardan unumli foydalaniladi. Dunyo tajribasida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga o'quvchini izlanishga undovchi o'quv topshiriqlari ham mavjud bo'lib, bir bo'lim yoki bir mavzu bilan tugab qolmaydi. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan yangi-yangi metodlar o'quvchida turli muloqot ko'nikmalarining osongina shakllanishiga olib keladi.

Dunyoda tillarni o'qitishda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish dars jarayonida lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishga, buning oqibatida nutqiy kompetentsiyalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda xorijiy tilni o'qitishda nutqiy malaka hosil qilishdan tashqari mustaqil ishlash, mavjud muammoli vaziyatni bartaraf



qilish an'anaviy ta'limdan ma'lum ma'noda farq qilishini, ularni bir chiziqda tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlash lozim. Shunga qaramay, ingliz tilini o'rganish bo'yicha belgilangan malaka darajalarini o'zbek tiliga ham tatbiq qilish zarurati ortib bormoqda. Ona tilidan farqli ravishda talabalarda chet tilidan asosiy nutqiy ko'nikmalar shakllantiriladi, mavjud bo'lgan ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ayniqsa, o'quvchilar chet tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunish, o'qiy olish, gapira olish va yoza olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Chet tilini o'rganishga qo'yilgan mazkur talablar asosida tinglash, gapirish, o'qish va yozish malakalaridan tashqari muammoli vaziyatni yechimini topish ko'nikmasi ham shakllanadi.

Respublikamizda ham xorijiy tilni o'qitish kompetentsiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, tayanch kompetentsiyalar negizida har bir fanga doir alohida kompetentsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Xorijiy tilni faniga doir nutqiy va lingvistik kompetentsiyalar tanlandi, tilning barcha sathlarni o'qitish shu mezonlarga asoslanmoqda. Talabalarining xorijiy tilidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash tizimlariga moslash, shu talablar asosida o'qitish yo'lga qo'yilmoqda. Respublika miqyosida oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yangi texnologiyada o'qitish orqali chet tili ta'limi sifatini oshirish muammolariga oid ilmiy ishlarda, jumladan, A.Abduqodirov, L.Golish, R.Djurayev, R.Ishmuxamedovlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarga alohida ta'rif berilgan, J.Jalolov, N.Muslimov, M.Usmonboyeva va boshqalar tomonidan pedagogik texnologiyalar bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash masalalari o'rganilgan, N.Azizxodjayeva, N.Saydaxmedov, A.Xodjaniazova va boshqalarning ishlarida pedagogik mahoratni namoyon etish usullari batafsil tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDX) mamlakatlari olimlaridan К.Ангеловский, V.Bespalko., T.Vasilyeva, V.Monaxov, Z.Slastyonin., B.Shadrikov kabi olimlar tomonidan o'qitishning zamonaviy usullari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijlik olimlardan Dj. Дьуйи, X. Keyrns, Sossyur de F, H.D.Brown, Gardner, R.C and Lambert, Domyei Zolton, J.Hammond, P.Mehisto, D. Marsh, M. J Frigols kabi olimlar tomonidan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, muammoli ta'lim masalalari atroflicha o'rganilgan. Respublikamizda ham xorijiy tilni o'rgatish va ularning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha turli yondashuv asosidagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari va bir qancha audio-vizual materiallar mavjud. Jahon til ta'limida biror bir tilni xorijiy til sifatida o'rgatilishi va bu jarayonda madaniyatga oid bilim va ko'nikmalarni integratsiya qilish masalasi atroflicha tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu tadqiqotlarning aksariyati ingliz, nemis, ispan va turk tillarining xorijiy til sifatida o'rgatilishi bilan bog'liq masalalarga to'g'ri keladi. Bu esa nazariy jihatdan ularning tadqiqot natijalariga murojaat qilishimiz mumkinligini, lozim topilgan o'rinlarini o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayoniga ham tatbiq etishimiz mumkinligini anglatadi. Tadqiqot mavzusi yo'nalishida jahon xorijiy til tajribasida W.P.Allen, B.Tomalin, U.Turk, R.Valette, J.Valdes, W.W.Allen, S.Bassnet, R.Bolt, N.Brooks, M.Bryam, C.Morgan, K.Chastain, M.Kortazzi, L.Jin, P.Cullen, R.Williams, Y.Zhao va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning darslik, qo'llanma, maqola hamda dissertatsiyalarida umumiy nazariy va ilmiy asoslar bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqotda ikkinchi va xorijiy til ta'limi uchun qabul qilingan qolip



butun yevropa tillarida til o'qitish trektoriyasini belgilab bergan CEFR (Common European Framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. (CEFR) 2001.) mezonlaridan ham atroflicha foydalanilgan. Ikkinchi va xorijiy til ta'limida boshqa tan olingan konseptual qoliplarning mavjud emasligi, Osiyo til ta'limi, xususan, turk tili ta'limida ham aynan shu qoliplardan foydalanilganligi sezilib turadi. Mavzuga aloqador mavjud manbalar sifatida quyidagilarini keltirish mumkin: Ziyaxanova D.A., Yuldashev, Sh.I. Adilova S.A. O'zbek tilini o'rganamiz (1-2- qism)¹, X.Abdurahmonov., E.Shodmonov., A Rafiyev O'zbek tili², R.Rasulov, A.Mirazizov. O'zbek tili³, S.Muhiddinova, Z.I.Salisheva, X.S.Po'latova. O'zbek tili⁴, Kurtulush O'ztopchu, O'zbek tili⁵, Usbekisch Wort f r Wort⁶. Xayrulla Ismatullayev, Larry Clark. Uzbek⁷, Michael Korotkow. Andree F Sjober, Abduroziq Rafiyev, Tunjay O'zturk, Dildora Nuriddinova, chet elliklar uchun O'zbek tili⁸, Nigora Azimova "Uzbek Elementary textbook"⁹, Dildora Tosheva, Bukhara¹⁰, Zumrad Ahmedova, Uzbek language va boshqalar¹¹. Shuningdek, xorijiy tilni o'qitishda amalda foydalanilayotgan darsliklar orasida Nigora Azimovanning "Uzbek Elementary textbook", Dildora Toshevaning "Bukhara", G.Ergasheva rahbarligi ostida MOTUL jamoasining "O'zbekona" darsliklari ham o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida madaniy aspektdan foydalanishga oid ba'zi metod va yondashuvlar hamda ular asosida ishlab chiqilgan metodik ta'minot, misol va topshiriqlar masalasida alohida ahamiyatga ega. Biroq oily ta'lim tizimida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyat va pragmatik aspektdan foydalanish orqali talabalarning muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish, nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish va uni takomillashtirish mazmuni, tuzilmasi, komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari, pedogogik jarayon modeli va didaktik va metodik asoslari maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, ta'lim tizimida chet tili mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish ko'nikmasini hosil qilish metodikasini yaratishni taqozo etdi. Ta'lim tizimida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyat va pragmatik aspektdan foydalanish orqali Talabalarning muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish, nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyatlararo muloqotni ta'minlashga hamda o'rganuvchilarning madaniyatga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat

¹ Ziyaxanova D.A. O'zbek tilini o'rganamiz.1- qism, Toshkent ,O'qituvchi,1998.

² X. Abdurahmonov, E. Shodmonov, A Rafiev. O'zbek tili. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. Toshkent .O'qituvchi.1995.

³ R. Rasulov, A Mirazizov. O'zbek tili. Toshkent, Aloqachi, 2005.

⁴ X. S. Muhiddinova, Z. I. Salisheva, X. S. Po'latova. Toshkent, O'qituvchi, 2006

⁵ Kurtulush O'ztopchu. Amerika Qo'shma Shtatlari. Kaliforniya universiteti 1994 yil.

⁶ Michael Orotko . Usbekisch ort f r ort. 2010. .

⁷ Ismatullaev X., Larry Clark. Uzbek. Washington. 1992.

⁸ Abduroziq Rafiyev, Tunjay O'zturk, Dildora Nuriddinova, chet elliklar uchun O'zbek tili. Darslik

⁹ Azimova N., Uzbek, Elementary textbook, Georgeto n. 2010.

¹⁰ Tosheva D. va boshqalar, Bukhara. Buxoro. 2020.

¹¹ Mirdjalolova L.R. O'zbek tili mashg'ulotlarida bolalarni savol-javobga o'rgatishning nazariy-metodik asoslari (ta'lim-tarbiya rus tilida olib boriladigan bolalar bog'chalari misolida): Ped.fan.nomz. ...dis.avtoref. – Toshkent, 2002. – 22 b.; Кадырова F.R. Lingvodidakticheskie osnovy obucheniya detey doskolnogo vozrasta vtoromu yazyku (na materiale russkogo i uzbekskogo yazykov): Dis.dokt.ped.nauk. – Toshkent, 2006. – 360 s.; Umarova F.Z. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida ko'makchi fe'lli birikuvlardan foydalanishni o'rgatish: Ped.fan.nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – 25 b.; Muxamedjanova G.Z. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyazon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi (5-9 sinflar misolida): Ped.fan.nomz. ...dis. – Navoiy, 2003.– 162 b.;



qiluvchi ilmiy-metodik tamoyillarni aniqlashtirish, yondashuv va metodlarni tavsiflash, vazifalari oliy ta'lim tizimida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyat va pragmatik aspektidan foydalanish orqali talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning mavjud holatini tahlil qilish; oliy ta'lim tizimida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda turli zamonaviy o'qitish metodlari orqali talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlarini topishga harakat qilish; oliy ta'lim tizimida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyat va pragmatik aspektidan foydalanish orqali talabalarning nutqiy malakalarni rivojlantirish, talabalarda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalar bilan bir qatorda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatga o'z yechimini taklif qilishni o'rgatish; umumiy, usul, vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish; oliy ta'lim tizimida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyat va pragmatik aspektidan foydalanish orqali talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning mavjud holatini tahlil qilish; ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishga madaniyatning o'rnini belgilashga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlarni tahlil qilish; ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy bilim va ko'nikmalarning til o'qitishga aloqador qamrovini va chegaralarini darsliklarda belgilash; ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy syllibusni shakllantirish me'zonlarini ishlab chiqish; ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda foydalaniladigan yondashuvlar va metodlarni tavsiflash; talabalarga ingliz tilini o'qitish va madaniyatni o'rgatishga oid metodik ta'minotni shakllantirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish; ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy bilim va ko'nikmalarni uzatish uchun onlayn va offlayn madaniy sayohat darslarini tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish; ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy aspektni integratsiya qilishga oid metodik ta'minot yaratish mezonlarini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kadirova F.R. Lingvodidakticheskie osnovy obucheniya detey doshkolnogo vozrasta vtoromu yaziku (na materiale russkogo i uzbekskogo yazikov): Dis.dokt.ped.nauk. – Toshkent, 2006. – 360 s.;
2. Umarova F.Z. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida ko'makchi fe'lli birikuvlardan foydalanishni o'rgatish: Ped.fan.nomz. ...dis. avto-ref. – Toshkent, 2000. – 25 b.;
3. Muxamedjanova G.Z. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi (5-9 sinflar misolida): Ped.fan.nomz. ...dis. – Navoiy, 2003. – 162 b.;
4. M.E.Axmedova Pedagogika Darslik.T.Tibbiyot nashriyoti matbaa MCHJ 2022. 208 bet.
5. M.E.Axmedova., U.A.Tashkenbayeva, E.Sh.Suyunova Umumiy pedagogika. Darslik.T.Tibbiyot nashriyoti matbaa MCHJ 2022. 328 bet.



6. Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3(01). - R. 46-57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925

7. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Hindiston, 2022. - P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037

8. Akhmedova M.E. Improvement of didactic, pragmatic methods of independent study tasks in philological education in the credit-module system // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Hindiston, 2022. - P. 86-90 Vol. 12, Issue 02. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,625

9. Akhmedova M.E. Improvement of pedagogical - pragmatic processes of independent study // Tasks in philological higher education European journal of Humanities & Educational Advancements pages Vol. 3 No. 04, April 2022, Spain, - P. 279-281. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 7,223

10. Akhmedova M.E. Features of module-credit, methods of question use and competence in creation of independent educational tasks / New York 2022. 28 iyun. Pages 217-221. Conference.